



PROTECTION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN KASHKADARYA REGION

Muminov Bekzod

Chief Specialist of the Cultural Heritage Agency,

Tel: +998 507565255.

e-mail: ekzodmuminov253@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474911>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Cultural heritage,
restoration, conservation,
historical object,
Kashkadarya region,
pilgrimage sites,
archaeological monuments.

ABSTRACT

This article analyzes the preservation and restoration of cultural heritage sites in the Kashkadarya region. The study emphasizes that safeguarding cultural heritage is one of the state policy priorities in Uzbekistan's national development. It highlights the restoration processes, government initiatives, public involvement, and the role of cultural sites in tourism development.

ОХРАНА ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Муминов Бекзод

Главный специалист Агентства по культурному наследию,

Тел.: +998 507565255.

e-mail: bekzodmuminov253@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474911>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Культурное наследие,
реставрация, консервация,
исторические объекты,
Кашкадарьинская
область, святыни,
археологические
памятники.

ABSTRACT

В статье рассматриваются вопросы охраны и реставрации объектов историко-культурного наследия Кашкадарьинской области. Подчеркивается, что сохранение культурного наследия является одним из приоритетных направлений государственной политики Узбекистана. Анализируются процессы реставрации, государственные и общественные инициативы, а также значение этих объектов в развитии туризма.

QASHQADARYO VILOYATIDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINING MUHOFAZA QILINISHI

Muminov Bekzod,

Madaniy meros agentligi bosh mutaxassisi,

Tel: +998 507565255.

e-mail: bekzodmuminov253@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474911>



ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Madaniy meros, restavratsiya, konservatsiya, tarixiy obyekt, Qashqadaryo viloyati, ziyoratgoh, arxeologik yodgorlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida joylashgan tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi O'zbekistonning milliy taraqqiyotida madaniy merosni asrash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi bilan asoslanadi. Tadqiqotda Qashqadaryoda olib borilgan restavratsiya ishlari, davlat va jamoatchilik tashabbuslari, shuningdek, turizm salohiyatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir" [3, 29]

Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyati hududida joylashgan tarixiy-madaniy obyektlarni muhofaza qilish masalalari mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayon milliy tiklanish g'oyasi, turizmni rivojlantirish strategiyasi hamda xalqaro madaniy meros standartlariga uyg'un holda olib borilmoqda.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish siyosatining huquqiy asoslari. Qashqadaryo viloyatida madaniy merosni muhofaza qilishga oid ishlar O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, 2009-yil 13-oktabrdagi "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 30-martdagi 265-sonli qarori hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni asosida amalga oshirilmoqda [4,5,6,7,9]

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-martdagi 112-sonli qarori bilan viloyatda turizm va madaniy meros infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlangan [8]

Lekin shunga qaramasdan hali ham madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasida ma'lum bir kamchiliklar uchraydi. Masalan, arxeologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlardan so'ng qazilgan hududlarni **ochiq qolidirish** holatlari uchraydi. Bu esa arxeologiya obyektlarida olib borilgan tadqiqotlardan so'ng, obyektни saqlab qolish yoki muzeylashtirish choralari ko'rishda muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunda o'z ta'sis hujjatlarida arxeologiya tadqiqotlarini amalga oshirish nazarda tutilgan davlat muassasalari hamda tashkilotlari tomonidan, ularning rasmiy so'roviga asosan, ular reja qilgan arxeologiya obyektidagina tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa chegaralari aniqlashtirilishi, aniq o'rni va davri belgilanishi, konservatsiya



qilinishi, muzeylashtirilishi lozim bo'lgan arxeologiya obyektlarining tadqiqotlardan chetda qolishiga olib kelmoqda.

Aholi zich joylashgan hududlardagi arxeologiya obyektlari chegaralarini belgilash yoki aniqlashtirish aynan ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan bog'liq.

Tadqiqotlarning o'zaro hamkorlikda manzilli rejaga muvofiq olib borilmaganligi sababli Qashqadaryo viloyatida 11 ta obyekt davri aniqlanmagan holda milliy ro'yxatga kiritilgan.

Vaholanki, Madaniy meros agentligi tomonidan arxeologiya tadqiqotlari uchun berilgan ruxsatnomalar soni yildan-yilga o'sib bormoqda. Masalan, arxeologiya tadqiqotlari uchun **2021-yilda 66 ta, 2022-yilda 90 ta, 2023-yilda 138 ta, 2024-yilda 138 ta, 2025-yil iyun oyiga qadar 119 ta** ruxsatnomalar rasmiylashtirilgan bo'lib, shundan Qashqadaryo viloyatiga 25 tasi to'g'ri keladi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-son qarorining 3-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlangan. Shunday bo'lsada, Rasmiylashtirilgan kadastr hujjatlarining ham hech biri yuqoridagi normativ-huquqiy hujjat talablariga javob bermaydi. Shu kabi, jumladan, Qashqadaryoda 370 ta arxeologiya merosi obyektlari haqidagi ma'lumotlar davlat kadastr yagona tizimiga kiritilmagan.

Mazkur muammoni hal qilish uchun arxeologiya obyektlari to'liq xatlovdan o'tkazilishi lozim. Xatlov jarayoni obyektlarning aniq maydoni, chegaralari va joylashgan o'rnini belgilash bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Katta hududga ega bo'lgan, ustiga aholining uy-joylari qurilib ketgan arxeologiya obyektlarini o'rganib chiqish, tegishli huquqiy baho berish va tarixiy-madaniy hududga aylantirish choralarini ko'rish kerak.

Shuningdek, respublika hududida amalga oshirilishi rejalashtirilgan qurilish, melioratsiya, qishloq xo'jaligi, yo'lsozlik va boshqa ishlardan oldin arxeologiya tadqiqotlarini olib borish, arxeolog xulosasini olish tartibini yo'lga qo'yish lozim.

"Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan muhofaza belgilarini o'rnatish lozimligi belgilangan bo'lsada, 419 ta arxeologiya merosi obyektlariga muhofaza belgilari o'rnatilmagan. Xususan, Qashqadaryoda 247 ta arxeologiya merosi obyektlariga muhofaza belgilari o'rnatilmagan. Muhofaza belgilarining o'rnatilmaganligi sababli arxeologiya obyektlariga zarar yetkazish holatlari qayd etilgan. Muhofaza belgilarining o'rnatilmaganligi sababli arxeologiya obyektlariga **zarar** yetkazish holatlari qayd etilgan. Xususan, Qashqadaryoda **37 ta** obyekt **halokat yoqasiga** kelib qolgan. Shuningdek, yetarli nazorat amalga oshirilmagani oqibatida Qashqadaryoda **14 ta** holatda arxeologiya merosi obyektlarining muhofaza hududi buzilib, qurilish qilingan.

Nazorat yetarli amalga oshirilmagani oqibatida so'nggi 3 yilda **227** arxeologiya zarar yetkazilgan bo'lsada, qonunbuzilish holatlariga chek qo'yilmagan. Birgina o'rganishda **23 ta** arxeologiya merosi obyektlariga **243 mlrd.** so'mlik zarar yetkazilganligi aniqlangan. Jumladan, Qashqadaryoda **6 (5 mlrd so'm)** ta arxeologiya obyektiga zarar yetkazilgani aniqlanib, jinoyat ishlari qo'zg'atildi.



Biron-bir huquqiy hujjatda arxeologiya obyektlarining ustiga aloqa qurilmalarini o'rnatilishi uchun ruxsat berilmagan bo'lsada, 34 ta arxeologiya obyektlari ustiga aloqa antennalarini o'rnatish holatlari mavjud. Xususan, Qashqadaryoda **19 ta** arxeologiya obyektining ustiga aloqa antennalari o'rnatilgan. Aloqa antennalarining o'rnatilishi natijasida arxeologiya obyektlariga **zarar** yetkazish holatlari kelib chiqmoqda. Mazkur muammoni hal qilish uchun arxeologiya obyektlarining ustiga aloqa qurilmalarining o'rnatilishiga ta'qiq qo'yish, o'rnatilgan aloqa antennalarini demontaj qilish choralarini ko'rish lozim bo'ladi.

Qashqadaryo viloyati hududida jami **1468 ta** moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ular arxeologiya, arxitektura, monumental san'at yodgorliklari va diqqatga sazovor joylar guruhlariga ajratilgan

Qashqadaryo viloyatidagi eng yirik va turizm uchun obyektlar quyidagilar:

- **Qarshi shahri:** Ko'kgumbaz va Odina masjidilari, Abu Ubayda ibn Jarroh majmuasi;
- **Shahrisabz shahri:** Oqsaroy, Gumbazi Sayyidon, Dorus Saodat majmualari;
- **Qamashi tumani:** Langar ota ziyoratgohi;
- **Koson tumanidagi Yerqo'rg'on va Chiroqchi tumanidagi Siypantosh** yodgorliklari.

Ushbu yodgorliklarning aksariyati eramizdan avvalgi II-I ming yilliklar– eramizning XVI asrlariga oid bo'lib, ularning muhofazasi va restavratsiyasi O'zbekiston Madaniy meros agentligi hamda mahalliy homiylar ishtirokida olib borilgan.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari. 1991–2021-yillar oralig'ida viloyatda 40 dan ortiq yirik restavratsiya loyihalari amalga oshirilganligi Allayev M.Ch. dissertatsiyasida qayd etilgan [1, 16-21]. Xususan:

- **Shahrisabzdagi Oqsaroy** yodgorligining konservatsiyasi;
- **Ko'kgumbaz jome masjidi** va **Odina masjidining** qayta ta'miri;
- **Sulton Mir Haydar ota, Abul Mu'in Nasafiy, Qusam ota** majmualarida rekonstruksiya ishlari olib borilgan [1, 17-18].

Mazkur ishlar davomida respublika bo'ylab usta-me'morlar jalb etilgan, ayrim qurilish materiallari esa xoriydan keltirilgan.

Madaniy merosni saqlashda davlat organlari bilan bir qatorda mahalliy aholi, homiylar va tadbirkorlarning hissasi katta bo'ldi. Bu jarayon natijasida ziyorat turizmi va ichki turizm rivojlandi. Shahrisabz 2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti deb e'lon qilinishi ham viloyatning meros salohiyatini xalqaro miqyosda tan olinishiga sabab bo'ldi [2, 460].

Xulosa.

Qashqadaryo viloyatida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish masalalari davlat siyosati, ilmiy yondashuv va mahalliy tashabbuslarning uzviy uyg'unligi natijasida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ta'mirlangan va tiklangan yodgorliklar nafaqat tarixiy xotira, balki turizm, ma'naviyat va iqtisodiyot rivojiga xizmat qilmoqda. Kelgusida mazkur obyektlardan foydalanishning iqtisodiy modelini takomillashtirish, ularni raqamli reyestruga kiritish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim vazifa bo'lib qoladi.



References:

1. Allayev M.Ch. Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va muhofaza qilish tarixi (1991–2021 yy.) – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2024.
2. Hamidova M.Z. Qashqadaryo viloyatidagi arxeologik yodgorliklar va tarixiy obyektlardan foydalanishning zaruriyati // *"Экономика и социум"* №3(118)-1 2024 – №3(118)-1. www.iupr.ru
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, 2009-yil 13-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, 2001-yil 30-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4068-son qarori, 2018-yil 19-dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 112-son qarori, 2021-yil 1-mart. <https://lex.uz/docs/-5316745>.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 30-martdagi 265-sonli qarori.